

QARSHI SHAHAR ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI FAOLIYATI
TARIXI

Tojiyev Bahodir Movlon o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Qarshi shahar ichki ishlar boshqarmasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy faoliyati tarixiy, huquqiy hamda ijtimoiy nuqtai nazardan keng yoritilgan. Maqolada boshqarma faoliyatining dastlabki sovet davridan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan asosiy bosqichlari, tuzilmaning tarkibiy o'zgarishlari, vazifalari va jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Tarixiy manbalar va arxiv materiallariga asoslangan holda, boshqarmaning mahalliy xavfsizlikni ta'minlash, huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi roli ilmiy asosda o'rganiladi. Xususan, boshqarmaning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati, jamoatchilik bilan hamkorligi va zamonaviy islohotlar natijasida erishilgan yutuqlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qarshi, ichki ishlar boshqarmasi, huquq-tartibot, xavfsizlik, sovet davri, mustaqillik, jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqiy islohotlar, tarix, ijtimoiy barqarorlik, boshqaruvi tizimi, kadrlar, jamoatchilik hamkorligi.

Аннотация. В данной научной статье подробно рассматриваются становление, этапы развития и современная деятельность Каршинского городского отдела внутренних дел с исторической, правовой и социальной точки зрения. В статье анализируются основные этапы деятельности отдела с раннего советского периода до годов независимости, структурные изменения в структуре, задачи и его роль в обществе. На основе исторических источников и архивных материалов на научной основе изучается роль отдела в обеспечении местной безопасности, укреплении правопорядка, борьбе с преступностью и защите прав и свобод граждан. В частности, анализируются материально-техническая база отдела,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

кадровый потенциал, взаимодействие с общественностью и достижения, достигнутые в результате современных реформ.

Ключевые слова: Карши, УВД, правопорядок, безопасность, советское время, независимость, борьба с преступностью, правовые реформы, история, социальная стабильность, система управления, кадры, общественное сотрудничество.

Abstract. This scientific article extensively covers the formation, stages of development and modern activities of the Karshi City Department of Internal Affairs from a historical, legal and social perspective. The article analyzes the main stages of the department's activities from the early Soviet period to the years of independence, structural changes in the structure, tasks and its role in society. Based on historical sources and archival materials, the role of the department in ensuring local security, strengthening law and order, combating crime and protecting the rights and freedoms of citizens is studied on a scientific basis. In particular, the material and technical base of the department, human resources, cooperation with the public and achievements achieved as a result of modern reforms are analyzed.

Keywords: Karshi, Department of Internal Affairs, law and order, security, Soviet era, independence, fight against crime, legal reforms, history, social stability, management system, personnel, public cooperation.

1917 yil 28 oktabrda RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan “Ichki militsiya to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat sovet hokimiyati tomonidan mamlakat miqyosida yangi tartib va boshqaruv tizimlarini joriy etishda muhim bosqich bo‘ldi. Turkiston o‘lkasida sovet hukmronligi o‘rnatalishi bilan birgalikda, mintaqada yangi boshqaruv organlari, jumladan ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi.

1918 yil 29 yanvarda Turkiston xalq komissarligi kengashining 17-sonli “Zahira kadrlarni yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

e'lon qilindi. Bu hujjatga asosan, mintaqadagi huquq-tartibot organlarini yangi siyosiy va ijtimoiy sharoitga mos ravishda qayta tashkil etish, zarur zahira kadrlarni shakllantirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilab berildi. 1918 yil boshlaridan boshlab Turkiston o'lkasining barcha shahar, uyezd va volostlarida militsiya organlari barpo etildi. Ushbu tuzilmalarning asosiy vazifalari jamoat tartibini saqlash, yangi siyosiy tuzumning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq etish hamda tartibsizliklarning oldini olishdan iborat edi.

1919 yil 26 aprelda esa Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) Ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK) tarkibida Respublika miqqosida militsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi Ishchi-dehqon militsiyasi Bosh boshqarmasi tashkil etildi. Bu boshqarma mintaqadagi huquq-tartibot organlari faoliyatini yagona markaziy rahbarlik ostiga birlashtirib, militsyaning tashkiliy va operativ salohiyatini oshirish, kadrlar tayyorlash va ichki xavfsizlikni ta'minlash sohasida yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu davrda Turkiston o'lkasida ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, fuqarolik urushlari va turli isyonlar fonida militsiya organlari nafaqat jamoat tartibi, balki sovet hukmronligining asosiy tayanchi sifatida ham faoliyat yuritganini alohida qayd etish lozim. Militsiya tizimining shakllanishi va rivojlanishi Turkiston mintaqasining siyosiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan, keyinchalik esa butun Sovet Ittifoqi hududida yagona huquq-tartibot organi sifatida faoliyat yuritishining asosi bo'lib xizmat qilgan.

Qarshi shahar Ichki ishlar boshqarmasining shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rghanishda, avvalo, uning dastlabki tuzilmasi va faoliyat bosqichlariga e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng, 1924–1926 yillarda Qarshi shahri “Behbudiy uezdi” deb nomlangan davrda mazkur hududda “Behbudiy uezdi militsiya bo'limi” tashkil etildi. 1926 yilda shaharga Behbudiy shahri nomi berilganidan so'ng, u “Behbudiy shahar militsiya bo'limi” nomi bilan atala boshlandi. Bu davrda militsiya idoralarining joylashuvi va ma'muriy binolari ham tarixiy ahamiyat kasb etgan. Xususan, necha asrlardan buyon saqlanib kelayotgan, Sho'rolar davrida omborxonaga aylantirilgan muhim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tarixiy obidalardan biri hisoblangan Xo‘ja Abdulazizzon madrasasi 1967–1968 yillargacha IIXK (NKVD)ning hududiy organi – “Behbudiy shahar militsiya bo‘limi” ma’muriy binosi sifatida xizmat qilgan.

Tashkil etilgan militsiya bo‘limiga zamonaviy huquq-tartibot organlari faoliyatining boshlang‘ich modelini eslatuvchi quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

- Hududda tartib-intizomni saqlash va chiqarilgan qaror, dekret hamda buyruqlarning ijrosini ta’minlash;
- Umum davlat mulki bo‘lgan tashkilot va binolar, jumladan, telegraf, pochta va boshqa aloqa obyektlarining xavfsizligini ta’minlash;
- Zavod, fabrika, korxona va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini himoya qilish;
- O‘rmon, ekinzor, davlat qo‘riqxonalari, yoqilg‘i omborxonalar, xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini muhofaza qilish;
- Qamoqsona va mahbuslar vaqtincha saqlanadigan lagerlarni qo‘riqlash;
- Boshqaruv organlariga ularga topshirilgan vazifalarni bajarishda ko‘maklashish.

Ushbu funksiyalar mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, davlat mulkini va aholini himoya qilish, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojiga ko‘maklashish, shuningdek, huquq-tartibot va xavfsizlikni saqlashda asosiy rol o‘ynagan. Shu bilan birga, militsiya organlari faoliyati tarixiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida, zamonaviy ichki ishlar organlari tizimining shakllanishida ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Sovet hukmronligi yillarida huquq-tartibot va xavfsizlik tizimining tuzilmasi bir necha bosqichda takomillashib, o‘z nomi va funksiyalarini zamon talablari asosida o‘zgartirib bordi. Sobiq SSSR tashkil etilgan davrda tashkil etilgan Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi (OGPU) davlatning asosiy siyosiy nazorat va xavfsizlik organi bo‘lib, butun Ittifoq hududida, shu jumladan Qarshi shahrida ham o‘z bo‘linmalarini tashkil etdi va faoliyat yuritdi. OGPUning asosiy vazifalari jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta’minlash, sovet hokimiyatining mafkuraviy va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

siyosiy raqiblariga qarshi kurash olib borish, “davlat xavfsizligi” ni ta’minlashdan iborat edi.

1934 yilda esa sobiq SSSRda Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (NKVD) tashkil etildi va bu organ OGPU vakolatlarini o‘z zimmasiga oldi. NKVD o‘z faoliyati davomida “ish ko‘rsatish” maqsadida butun Ittifoq hududida, xususan, Qarshi shahrida ham o‘zining qattiq siyosiy qatag‘on va repressiya siyosatini joriy etdi. Ushbu organning xodimlari keng miqyosli siyosiy ta’qib, ommaviy hibsga olishlar, soxta ayblovlar bilan qiynoqlar va boshqa repressiv choralarni amalga oshirdilar. Ayniqsa, 1937–1938 yillardagi “katta terror” davri sobiq SSSR hududidagi boshqa hududlar qatori Qarshi shahrida ham minglab begunoh insonlarning qatag‘on qilinishiga sabab bo‘ldi.

Bu davrda, siyosiy ayblanganlarni ushlab turish, tergov va qamoqqa olish maqsadida tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan “Odina” masjidi 1937 yildan boshlab “Toshturma” nomi bilan mashhur bo‘lgan tergov izolyatoriga aylantirildi. Ushbu voqeя o‘z vaqtida tarixiy yodgorliklarning ham siyosiy maqsadlarda foydalanilganini ko‘rsatadi.

1967–1968 yillarga kelib, Qarshi shahar Ichki ishlar bo‘limi faoliyati ilgari Xo‘ja Abdulazizzon madrasasi joylashgan binodan zamonaviy talablar asosida qurilgan yangi ma’muriy binoga (hozirgi Qarshi shahar IIO FMB M va FRB binosi) ko‘chiriladi. Ushbu bino Qarshi shahar Ichki ishlar bo‘limi xodimlariga 2000–2001 yilgacha xizmat qiladi. Bu jarayon ichki ishlar organlarining moddiy-texnik bazasi va ish sharoitlarini zamonaviylashtirish, faoliyat samaradorligini oshirish yo‘lidagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi.

Umuman, sovet davrida huquq-tartibot tizimining transformatsiyasi, qator repressiv mexanizmlarning joriy etilishi, tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlarining davlat ehtiyojlari uchun qayta moslashtirilishi Qarshi shahrining zamonaviy ichki ishlar tizimi shakllanishida ham o‘z izini qoldirdi.

Bugungi kunda Qarshi shahrining Ichki ishlar boshqarmasi o‘z faoliyatini zamonaviy huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslarda davom ettirib, hudud

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

aholisining xavfsizligi, jamoat tartibi va huquq-tartibotni ta'minlashda yetakchi o'rinni tutadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2019.
2. Babakalanov Z.Y. Demokratlashtirish va sud-huquq tizimini isloh etish sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy ta'minlashni takomillashtirish // O'zbekiston Respublikayei IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2011 yil 1-sod. 31 – 32betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 martdagи “Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni // “Xalq so'zi” 2001 yil 28 mart.
4. Sattorov A. Ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning samarasi // O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo'naliishlari: Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. 48-bet.